

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
<b>J.G'.Numonova</b>	
The role of podcasts and audiobooks in language education.....	877
<b>J.G'.Numonova</b>	
The influence of technological advancements on language assessment methods.....	881
<b>O.Z.Dadajonov</b>	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini.....	885
<b>S.A.Yusupova</b>	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels.....	890
<b>N.M.Merganova, N.A.Orifjonova</b>	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari.....	894
<b>G.A.To'lanboyeva</b>	
Muloqot va uning xususiyatlari.....	898
<b>S.A.Xaqnazarova</b>	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi.....	901
<b>N.M.Merganova</b>	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari.....	905
<b>C.X.Azimova</b>	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах.....	908
<b>N.A.Komilova</b>	
The representation of gender in English idiomatic expressions.....	911
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati.....	915
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar.....	919
<b>S.To'lanov</b>	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi.....	923
<b>S.To'lanov</b>	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv.....	927
<b>Y.U.Abdurazzakov</b>	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi.....	931
<b>I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova</b>	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari.....	934
<b>D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova</b>	
Challenges in translating Uzbek literature to English.....	938
<b>D.S.Usmonova, N.R.Rajabova</b>	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language.....	942
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi.....	946
<b>S.A.Xaqnazarova</b>	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana.....	949
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon yasovchi affikslarning o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari.....	953
<b>G.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limni tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi.....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi.....	961
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi.....	966
<b>S.I.Quziyev</b>	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	970
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi.....	975
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
About the term of persuasion.....	979



UO'K: 37.091.3:811.112:2

## OG'ZAKI NUTQNING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI

## ОСОБЕННОСТИ УСТНОЙ РЕЧИ

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF ORAL SPEECH

Merganova Nigora Mamadodilovna<sup>1</sup> <sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)Orifjonova Nilufar Azizjon qizi<sup>2</sup><sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, nemis tili yo'nalishi talabasi

## Annotatsiya

Mazkur maqolada og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari, og'zaki nutqda so'zlovchining faol nutqiy harakati to'xtam (pauza), ohang, urg'u, turli imo-ishoralar fikrning tinglovchiga yetib borishida katta ahamiyat kasb etishi to'g'risida so'z boradi. Maqolada og'zaki nutqning xususiyatlari yozma nutq bilan qiyoslangan holda keng yoritib berilgan. Og'zaki nutqni ro'yobga chiqishida tildan tashqari bo'lgan bir qancha (ekstralingvistik) omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu omillar ta'sirida so'zlovchi muloqot jarayonida til vositalarini tanlaydi. Nemis olimi Xaynts Rupp 1964 yil og'zaki nutqning yozma nutqdan farqi va darslarda og'zaki nutqqa alohida e'tibor qaratilishi zarurligini ta'kidlangan va olib borgan tadqiqot natijalari jadvalda berilgan. Shuningdek, maqolada yozma va og'zaki nutqning amalga oshishi misollar yordamida berilgan bo'lib, yozma nutqda insonning ruhiy kechinmasi, holati tinish belgilari undov, so'roq kabilar yordamida aks ettirilsa, og'zaki nutqda temp, ohang, to'xtalish, ta'kidlash orqali ifodalanishi batafsil yoritiladi. Og'zaki nutqni o'rgatishda yuqorida sanab o'tilgan fonetik hodisalar muhim o'rin tutishi, agar kommunikant fonetik qoidalarga rioya etmasa kognizant uni noto'g'ri tushunishi yoki umuman tushunmasligi mumkinligi bayon etiladi.

## Аннотация

В данной статье идёт речь об особенностях устной речи, о том, что паузы (паузы) в активной речи говорящего, тон, акценты, различные жесты имеют большое значение в донесении мысли до слушателя. В статье описаны особенности устной речи по сравнению с письменной речью. На реализацию устной речи оказывает влияние и ряд (экстралингвистических) факторов вне языка. Под влиянием этих факторов говорящий выбирает языковые средства в процессе общения. Результаты исследования, проведенного немецким ученым Хайнцем Руппом в 1964 году, подчеркнули разницу между устной речью и письменной речью и необходимость уделять на занятиях устной речи особое внимание. Также в статье дана реализация письменной и устной речи с помощью примеров, причем в письменной речи психические переживания и состояния человека отражаются с помощью знаков препинания, восклицания, вопроса и т. д., а в устной речи она подробно поясняется темпом, тоном, паузой и ударением. Утверждается, что перечисленные выше фонетические явления играют важную роль в обучении устной речи, и если коммуникатор не будет следовать фонетическим правилам, то познающий может его неправильно понять или не понять вообще.

## Abstract

This article talks about the specific features of oral speech, the fact that pauses (pauses) in the speaker's active speech, tone, emphasis, and various gestures are of great importance in conveying the thought to the listener. The article describes the features of oral speech in comparison with written speech. A number of (extralinguistic) factors outside the language also have their influence on the realization of oral speech. Under the influence of these factors, the speaker chooses language tools in the process of communication. The results of the research conducted by the German scientist Heinz Rupp in 1964 emphasized the difference between oral speech and written speech and the need to pay special attention to oral speech in classes. Also, in the article, the implementation of written and spoken speech is given with the help of examples, and in written speech, the mental experience and state of a person is reflected using punctuation marks, exclamation, question, etc., and in spoken speech, it is explained in detail by tempo, tone, pause, and emphasis. It is stated that the phonetic phenomena listed above play an important role in teaching oral speech, and if the communicator does not follow the phonetic rules, the cognizant may misunderstand him or not understand him at all.

**Kalit so'zlar:** to'xtam (pauza), ohang, urg'u, turli imo-ishoralar, ekstralingvistik omillar, insonning ruhiy kechinmasi, ruhiy holati, lingvistik vositalar.

**Ключевые слова:** пауза, тон, акцент, различные жесты, экстралингвистические факторы, психический опыт человека, психическое состояние, лингвистические средства.

## TILSHUNOSLIK

**Key words:** stop (pause), tone, accent, various gestures, extralinguistic factors, human mental experience, mental state, linguistic tools.

## KIRISH

Og'zaki nutq tezkorlik bilan (avtomatik tarzda) amalga oshadi. Tushunchalar bilan «uning libosi» bo'lgan so'z birgalikda «yashin tezligida» tilga kela boshlaydi. Ba'zan so'zlovchi tushunchani ifodalovchi so'zni o'sha tezlikda topa olmay qoladi. Unga yaqin yoki o'ylangan tushunchani ifodalay olmaydigan so'zlarni ishlatib yuboradi. Natijada, aytilgan nutq (gap, gaplar)dan ko'zlangan maqsadi (fikri) to'liq ro'yobga chiqmaydi. Bunda so'zlovchi o'z fikrini bayon qila olmaydi va natijada tinglovchi uni tushunmaydi. Bu vaziyat chet tilda so'zlaganda, ayniqsa, ko'p kuzatiladi.

**So'zlovchi:** *In den letzten Zeiten ist die Zahl der Vegetarier in Deutschland genommen.* (So'nggi vaqtlarda Germaniyada vegetarianlar soni olinmoqda).

**Tinglovchi:** *Wie bitte? Ich habe Sie nicht verstanden.* (Nima dedingiz? Men sizni fikringizni tushinmadim).

Ushbu misol nemis tili darsidan olingan bo'lib, talaba "Vegetarianlar" mavzusi to'g'risida nutq so'zlayotib, **zuehmen** ya'ni **oshmoq, ko'paymoq** so'zining o'rniga **nehmen olmoq** so'zini ishlatadi. Bunga sabab bu so'zning o'zagi bir xil bo'lganligi va talabani xotirasida shu asosiy o'zak borligidir. Ya'ni, **nehmen** so'zi **zuehmen** so'ziga yaqinroq shaklda bo'lganligi bois, talaba fikrini to'g'ri ifodalay olmadi, natijada esa tinglovchi uni tushunmadi va savolga tutdi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari to'g'risida T.Qudratov o'zining "Nutq madaniyati asoslari" [1, 24-25] nomli asarida alohida to'xtaladi. Tadqiqotchi og'zaki nutq xususiyatlarini sanab, quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatadi:

1. Kommunikantlar og'zaki nutqda so'z birikmalari va gaplarning modellari aytilmoqchi bo'lgan fikrga monand holda tezkorlik bilan tanlashi zarur. Gap strukturasi, modellarini so'zlovchi aqlan nazorat qilib boradi. Shu bilan birga fikrni va aytilganlarni xotirada ushlab turgan holda rivojlantirib boradi.

2. Og'zaki nutq tahrir qilinish imkoniyatidan mahrum. U qanday shaklda vujudga kelgan bo'lsa, shundayligicha tinglovchiga havola qilinadi.

*"Mmmh, ja, aber hier.... in diesem Restaurant... die Kellnerin ist eh schon misstrauisch"* [2, 74]. (Hmm, ha, lekin... bu restoranda... ofitsiant qiz bizga norozi qiyofada qarayapti.)

Berilgan misoldan shuni anglash mumkinki, og'zaki nutqda taqlid so'zlar, to'xtalishlar so'zlovchining ikkilanayotgani yoki fikrini ta'kidlashni ifodalashda muhimdir.

3. Og'zaki nutqda, odatda, muloqot uchun eng zarur vositalargina bayon etiladi. Bu bir tomondan vaqt iqtisodi bilan, ikkinchi tomondan, notiq kuchini tejash bilan bog'liq. Shunga ko'ra, unda mavzuga uzundan-uzoq kirish, keng izohlar kam uchraydi. Aksincha, hodisalarning, narsalarning o'zaro bog'liqlik darajalari, ularning kognizant va kommunikantga ravshanligi darajasi hisobga olinadi. Faqat zarurat his etilgandagina avvaldan ma'lum narsalarga izoh beriladi.

4. Og'zaki nutq so'z boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha sodda bo'ladi. Unda bir xil so'zlar, bir xil shakllar bir qadar ko'proq takrorlanadi. Bu hol til vositalarini tanlash qiyinchiliklari bilan bog'liqdir.

*„Nein, nein, bleiben Sie nur! Sie passen reizend zusammen“.* Yo'q, yo'q, siz qoling! Sizlar bir-biringizga juda mossiz. [3, 64]

Quyidagi misolda so'zlarning takrorlanishi kuzatiladi, chunki so'zlovchi hayajoni yoki jahlini so'zlarning ohangi va takrorlanishi yordamida ifodalaydi. Shuningdek, nutqdagi takrorlanishlardan so'zlovchining til vositalarini tanlashda qiynalayotganini ham anglash mumkin, bu jarayon bevosita inson miyasining faoliyati bilan bog'liq bo'lib, so'zlovchi takrorlash yordamida keyingi til vositalarini tanlaydi va nutqni davom ettiradi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Og'zaki nutqda so'zlovchining faol nutqiy harakati to'xtam (pauza), ohang, urg'u, turli imo-ishoralar fikrning tinglovchiga yetib borishida katta ahamiyat kasb etadi. Og'zaki nutqning xususiyatlarini yanada aniq tasavvur etish uchun uni yozma nutq bilan qiyoslash kerak bo'ladi. Bu haqda nemis olimi Xaynts Rupp 1964 yil og'zaki nutqning yozma nutqdan farqi va darslarda og'zaki nutqqa alohida e'tibor qaratilishi zarurligini ta'kidlaydi va olib borgan tadqiqot natijalarini quyidagi

jadvalda namoyish etadi:

1.1-jadval

Og'zaki va yozma nutqning farqi

Og'zaki nutq	Yozma nutq
tovush	harf
so'z	so'z
funksional birlik	gap
suhbat	matn

Yuqorida og'zaki va yozma nutq birliklari o'rtasidagi farq haqida so'z yuritilgan bo'lsa, nemis olimlari N.Munkel va G.Reginelarning "Gapirish malakalari" [4, 36] nomli qo'llanmasida yaxshi yoritilgan. Unda og'zaki nutq, ya'ni gapirish malakasining quyidagi xususiyatlari to'g'risida so'z boradi:

1. Gapirish uchun artikulyatsiya muhim.
2. Gapirishga ajratilgan vaqt yozishga nisbatan cheklangan, vaqt tanqisligi mavjud.
3. Gapirish har doim noverbal muloqot vositalari bilan bog'liq.

Bir qarashda fikrni yozma ifodalashdan gapirishning farqi tovush yoki harfdan foydalanish mavjudligida ko'rinadi. Aslida esa og'zaki nutqni ro'yobga chiqishida tildan tashqari bo'lgan bir qancha (ekstralingvistik) omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu omillar ta'sirida so'zlovchi muloqot jarayonida til vositalarini tanlaydi.

Gapirish nutq faoliyatining turi sifatida o'zining ijodiylik bilan ajralib turadigan murakkab fikrlash jarayoni bo'lib, unda so'zlovchi o'z fikr va his-tuyg'ularini til va ekstralingvistik omillar yordamida ifodalashga harakat qiladi. Og'zaki nutqning yozma nutqdan farqi mana shu ekstralingvistik omillar yordamida yaqqol ko'rinadi. Og'zaki nutqni nazorat qilish yozma nutqdan farqli ravishda ancha murakkab. Chunki u bir yoki bir necha kishilar tomonidan bir vaqtda yoki ketma-ket amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, og'zaki nutq ifoda ixchamligi bilan yozma nutqdan farqlanadi. Shu bois og'zaki dialogik nutqda ifoda vositalarining ixcham talaffuz etilish, til birliklarining nutqiy vaziyat uchun zarur bo'lgan qismlari tushib qolishi (ellipsis) holatlari ko'p uchraydi. Masalan,

*"Tarik, stimmst!?" Tarik, to'g'ri aytdimmi!?*

*"Weiter gehts." Davom etamiz.*

*"Hey, ich hab doch gesagt, ich kann fahren". [2, 22] (Ey, men senga axir aytdim-ku, mashina hayday olaman.)*

Misollardan ko'rinadiki, jumalardagi birliklar nutq jarayonida tushirib qoldirilsa-da, jumlaning mazmuniga putur yetmaydi. Og'zaki nutqdagi birliklar o'ziga xos ohangga ega bo'lsada, yozma nutq birliklaridan farq qiladi. Ma'lum shart-sharoitlarda ruhiy kechinma, kayfiyat va holatlar turli intonatsiyalar bilan, o'ziga xos emfatik konstruksiyalar orqali beriladi.

*Toll! Gut! Zo'r! Yaxshi!*

*Was ist denn passiert? Nima bo'ldi o'zi?*

*Wahnsinn! Ahmoqlik!*

*Ich liebe Currywurst! (Men ziravorli go'shtni juda yaxshi ko'raman!).*

**XULOSA**

Berilgan misollardan shuni anglash mumkinki, yozma nutqda insonning ruhiy kechinmasi, holati tinish belgilari undov, so'roq kabilar yordamida aks ettirilsa, og'zaki nutqda temp, ohang, to'xtalish, ta'kidlash orqali ifodalanadi. Shu sababli og'zaki nutqni o'rgatishda yuqorida sanab o'tilgan fonetik hodisalar muhim o'rin tutib, agar kommunikant fonetik qoidalarga rioya etmasa kognizant uni noto'g'ri tushunishi yoki umuman tushunmasligi mumkin. Yozma nutqda fikrlar izchilligi, ketma-ketligi, navbati, mantiqiy davomiyligi kuzatilsa, og'zaki (dialogik) nutqda fikr va mavzu erkinligi kuzatiladi. Suhbat chog'ida mavzu bir necha marotabaga o'zgarishi, mavzudagi chekinish va yana unga qaytish, kutilmagan fikr, savollar ko'p uchraydi. Bu shakldindan tayyorlanilmagan nutq turiga kiradi. Shu bois til o'rganuvchilarni turli nutqiy vaziyatlar sharoitida muloqot yurita olishga, vaziyatga qarab mos so'z, ibora, jumalarni to'g'ri ishlatishga o'rgatish muhimdir.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. Бошланғич таълим педагогикаси ва методикаси факультетлари учун қўлланма. –Тошкент. “Уқитувчи”. 1993. 24-25 бетлар.
2. Thorsten Nesch. Joy-Rideost. Ein roadmovie Roman. - Hamburg 2010., Seite 22, 74.
3. Jane Austen. Stolz und Vorurteil. Insel. Taschenbuch. Frankfurt am Main. 2007. Seite 64.
4. Neuf Munkel, Gabriela und Roland Regine. Fertigkeit Sprechen. Langenscheidt. – Berlin, 1999.S. 36.